

Alisher NAVOIY

VAQFIYA

BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

Ulum haqoyiqi, balki haqoyiq ulumining fasih kalomlik va sahih hadislik mudarrislari kashshof tab’, mutoleidin maoniy tavoleini bayon lavome’i bila rub’i maskun ma’murasining murabba’ hujralaridag‘i mavzun adolig‘ va matbu’ alqolig‘ talabasining zamirlari mushkulotig‘a va xayollari misbohig‘a izoh qila olmoqliklarining boisi ul bo‘la olg‘aykim, hidoyatoro avroqlari bidoyatin va diroyatoso saboqlari nixoyatin ul olam kimyoи hamdi va javohir shukri bila mulaxxas va munavvar qilurlarkim, odamni «Salotulloxi alayhi va laqad karramno bani odam»¹ ikromi bila mukarram qilib va ilmi adam ul-asmo’ tashrifi birla musharraf etib, malakut olamnning muqarnas tokliq va muqaddas ravoqlik madrasasida karrubiylar² ifoda va istifodasi uchun ijlos qildi. «Subxonaka lo a’lamin lino illo mo allamatina innaka anta-l-alim ul hakimi»³.

Nazm:

*Anga hamdkim ilmlari tayb erur
Va shul ilm ila olam ul-g‘ayb erur.*

*Alimiki, bir zarra ilmida fosh
Bidoyat spehrida yuz ming quyosh.*

*Hakimeki, bir qatrai xikmati
Tuzatti muhitu falak hay’ati.*

*Va bo’stoni faslida ko‘yg‘ach ko‘ngul
O‘zin tifla maktab ko‘rib aqli kull.*

*Shabistonni ilmida jinnu malak
O‘chub gungu lol, uylakim shabparak.*

*Na umme-ki, surgach sharaf xomasi,
Qilib oni kavnayi allomasi*

*Ne olimki, ilmig‘a mag‘rur etib
Qabul ahlidin oni mahjur etib.*

*Jahon madrusin to‘rt toq aylabon
Anga ko‘kni to‘qquz ravoq aylabon.*

*Toshida mo‘xandis Zuhal paykari
Ichida mudarris bo‘lub Mushtariy.*

Taoli-lilloh ud qodiri zuljalol

Ki, ham lam yazal keldi ham lo yazal.

*Ayon ulcha mavjudu ma'dum anga
Azal to abad ilmi ma'lum anga*

«Jalli subhanahu va azumu sha'nuhu va ilayhi g‘ayrihu»⁴ funun daqoyiki, balki daqoyiq fununining mutavvil maoniy ayonliq va muxtasar bayonliq muhaddislari nihodi zehn badri mashorikidin ahodis masobihini ifoda shamoyili bila sipehr madrasasining toqi ostidagi⁵ i va har xonaqohi suffasi ustidagi «Utubul ilma va lav bachinni»⁵ amri bilan sa'y qadamin talab bodiyasig'a qo'yub, umid ajzosin faqr juzvdonig'a solib, tajarrud kutubin tahammul orasig'a ko'tarib har kun bir manzil va har oy bir shahr marohilin qat' qilg'an mutbadiylar, «Al ulamou varasatu al-anbiyo»⁶ oliv marotibi umidi bila mashaqqat tunlari aftoda tirsaklarin falokat bo'ryosig'a qo'yib, sabr qo'llarin shikastaliq engagiga sutun etib, za'f dimog'in savdo chirog'i dudi bila mushavvash etib, jahl ko'zin amal varaqlariga yitqan muntahiyilar tafhim va ta'limig'a muvaffaq bo'lur uchun sabab bu bo'lg'aykim, balog'at javohiri bila murassa' lug'otlarin va fasohat zavohiri bila mukallal nukotlarin ul mahbub oqibat Mahmud⁷ na'ti bila muzayyan va mujallo qilurlarkim, uluvvi darajotdin «Ulamou ummatiy k-anbiyo bani Isroila»⁸ taronasi bila tarannum tuzdi va samuvvi rif'atdin «fazlu olimi alal obidi k-afzalu alo adnokum»⁹ fasonasi bila takallum ko'rguzdi.

Nazm:

*Liy ma'a Ollohnning sarfarozi,
Qoba qavsayn mahrami rozi¹⁰.*

*Taxti ostida farshi u adno
Toji ustida durrimo avho.*

*Sochi tobida laylat ul-me'roj
Shomi me'roji charx boshig'a toj.*

*Ul shahi jin, ins xayli aning
Balki kavnayn o'lub tufayli aning.*

*Qaysi til birla, yo baniy ulloh,
Seni ta'rif etay mene gumroh*

*Madhi zotingda haq debon lavlok
Lam yakun zolika-l-ulluvvi sivok*

*Ham magar ushbu tavr xiyla bila,
Madhi zotingni der vasila bila.*

*Ayta ham olmasam sifotingni,
Qilg'amen zikr tilg'a otingni.*

*To najotimg'a ul madad bo'lg'ay,
Ne madadkim, ulug' pisand bo'lg'ay.*

*Yorab, ul hodiyi sabul haqqi,
Yorab, ul xotami rasul haqqi.*

*Kim seni zoru bebizoatni
O'rtag'an jurm o'tig'a toatni.*

*Etma mahrum aning itoatidin
Qilma navmed aning shafoatidin.*

«Va salollohu alayxi va alo olihit tayyibiyn va ashobuh ut-tohiriyn va min tob'ihum ajmaiyn ilo yavmuddin¹¹.

Ammo hamdu sano vazoyifi va na'tu duo sharoitidin so'ngra jon mazraasin va ko'ngul hadiqasin ulum talabig'a vaqf etgan voqiflar hazratida va bu mazraa va hadiqa muhsulin funun kasbida sarf etgan soriflar xizmatida ma'ruz va marfu' ulkim, azali azaldakim, mavjudot ra'nolari adam shabistonidin vujud gulistonig'a jilvasoz bo'lmaydur erdilar va mahluqot zebolari yo'qluq xilvatidin borluq sahrosida arbada og'oz qilmaydur erdilar.

Nazm:

*Adam shomida yo'qluq xilvatida
Aning uyqu masti erdi Odam
Ki, oyini hayoti kirmas erdi
Tushiga, bal anga yo'q erdi tush ham.*

Kunning xo'tani g'addor sipohi tunning zangi shior cheriki shabixunidin forig' va shomning mushkbuy sipoh jardalari subhning mo'g'iljabin chobuksuvari turktozidin emin, na falak binafshazorig'a kavokib jolalari jilvasoz va na kavokib jololarig'a quyosh o'ti haroratidin gudoz, na bulbulning g'unchadek qonlig' ko'nglida gul ishqil xorxoridin asar va na parvonaning o'tlug' jonida sham' shavqi sharoridin xabar.

Nazm:

*Na ko'k ediyu na ko'k ichra yor, na yer uzra mulk,
Na mulk ichida diyoru na ul diyorda yor.*

«Konallohu va lam yakun maahushay'an»¹². Chun Haq subhono va taoloning hikmati bolig'a va qudrat shay'i asi «Annamo amarahu izo iroda shay'an an yaqullahu kun fayakun»¹³ ishorati bila jame' mahluqotni g'ayb shodirvoni keynidin shahodat maydoni fazosig'a surdi «kuntu kanazon maxfiyyan faajabtu an a'rafa fa xalafat ul haqqu» bashorati birla andog' zohir bo'ldikim, bu mavjudot qobiliyati qadig'a vujud kisvatin solmoqdin maqsud inson vujudi erdikim, «ham-martu tiynatu odama biyadiy ba arbaina sabohan»¹⁴ bu ma'nig'a mash'ardur. «Inna arazno al-amonata alo-s-samovati valarzi val jabola faabayna an yaxmalinaho»¹⁵ da'viyg'a shohid, ammo nechukki vahhoblig'i taqozosi bu nav' mavhibat va jamoliyat qildi.

Qahhorlig'i dog'i bularning aksi muqtazo - qahr va jaloliyat bo'ldi. Har oyinakim, «Hallaqul insona min tafovutin»¹⁶ amri lozim keldi. Andog'ki, Muso salavotul-lahu alayhi-r-rahmon¹⁷ ilkidagi quyosh o'trusida fir'avn tiyralig'i zuhurg'a keldi. Hazrati «Muhammad arabiy salollohu alayhi vassallam»¹⁸ ilmi aynul hayotining muqobilasida bu jahl zulmati jilva va zuhur qildi.

Ruboiy:

*Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa chaman,
Qilmadi aning barcha nabotini hasan.
Bir sari agar ekti gulu sarvu suman
O‘zga sari tiki xasu xoshoku tikan.*

Ammo korxona vasi’atidin matnu’ xaloyiq g‘oyatsiz va xalq kasiratidin muxtalif firqa nihoyatsiz va firq ixtilofidin shun’a mazohib bisyor va mazohib shun’asidin kabiha af’ol beshumor, mutasavvar uchun hikmati ilohiy va inoyati nomutanohiy jaholat zulmatig‘a tushgan gumrohlar ilayig‘a hidoyat sham’in tutub, tuz yo‘lg‘a rahnamolig‘ qilmoq uchun zalolat kuduratida qolg‘on nomasiyohlar oldig‘a inoyat mash’alin yorutib, siroti mustaqim ko‘rguzmak uchun ba’zi mas’ud fotihalik saodatpayvandlar va Mahmud xotimaliq davlatmandlarning farxunda farqlarig‘a nubuvvat tojin qo‘yub, sharif egnilariga hidoyat xil’atin solib, muborak bellariga risolat kamarin bog‘lab, bu xaloyiq orasida sarafroz va mo‘jizapardoz qildikim, «Haqqi jalli subhona»¹⁹ ado amrin «Jannot tajarri min taxtaho l-anhori»²⁰ va’dasi umidi bila, navohisin «Ano jaalno fi a’nokuhum a’lolani»²¹ vaydi biymi bila alarg‘a irsol qilg‘onlar. Har kim taslim yuzin qabul tufrog‘iga qo‘yub, ularning amri nahyig‘a iymon kelturub, toatlarig‘a amal qilsa, «An allazina ominu va amal us-solihoti fa lahum adri g‘ayri mamnunin»²² hidoyo va niamidin barxo‘rdor bo‘lg‘ay va har kim shaytoni vasovis va nafsoniy havohis g‘alabasidin dalil tilamakka zalil va burhon istamakka alil bo‘lsa, ular kunsdin ravshanroq mo‘jiza bobida yadi bayzo ko‘rgo‘zgaylar va yasixus sukut²³ e’jozi zuhurida oyate bo‘lg‘aylar.

B a y t:

*Ne oyat, ne kalomki, ahlu fazlu kamol
Erur aning kibi bir harfning adosida lol.*

Andog‘ki, kalimdai «faatou bi suratin min mislihi»²⁴ andin xabar berur va agar jahllari bemorlig‘i bu nav’ shofi’ muolijalari birla shifo topsa va savdolari muddaosi bu tavr kofiy muomalalari bila kifoyat bo‘lsa, biz-zarura ularning qiblai iqbol va ka’bai ammoldek risolatlari dargohig‘a boqqaylar va iltijo ilkin najot xalqasig‘a urub, maqsud eshigin qoqqaylar. Umidki, «Man qarai boban lojju va lajju»²⁵ hukmi bila yuzlarig‘a maqsud eshigi ochilg‘ay va boshlarig‘a murod gavhari sochilg‘ay va har kim xilqat nopolklig‘idin va tiynat illatnoklig‘idin bovujudi bu nav’ sodiqi rasul va sidqi rasoyil va mustaqimi sabil va rosti daloyil risolat ganji muharramlarining rozi va nubuvvat sirri hamdamlarining e’jozi abo sahbosidin sarxushroq, istibkor havosidin sarkashroq bo‘lub, Rasul favoriqin saharg‘a tushursa va anbiyo mo‘jizotin irodat birla sha’badag‘a indursa, «Ash shaqiyyu min shaqiyyun fibatni ummiyhu»²⁶ dalili birla dunyoda shaqovati muxallad va uqboda azobi muabbad bo‘lg‘ay «fa ulaika un nori -hum fiho xoliduvna»²⁷.

Nazm:

*Xudoyki sun’ oshkor ayladi
Ki, yo‘qdin xaloyiqni bor ayladi.*

*Chu tiynatlarin qildi taxmir o‘zi
Yomon yaxshisi dog‘i taqdir o‘zi.*

Bu bir gar savob etti, ul bir taboh

Aroda bularg‘a ne erkin gunoh?

*Kim ul birni o‘rtar jaloliyati.
Bu birni sevargay jamoliyati.*

*Kishi buyla nogoh savol etmayin,
Savolin muvajjah xayol etmayin.*

*Ki, sirri ilohiy ne bilmas kishi
Kishi fahmidin tosh erur haq ishi.*

*Kerak buyla so‘zni xifo aylamak
Bu ma’ni bila ixtifo aylamak*

*Ki, tengriga chun mavj urub bahri xud
Jome’i xaloyiqg‘a berdi vujud.*

*G‘azab haminon qildi, rahmat dag‘i.
Yaratti tomug‘, dog‘i jannat dag‘i.*

*G‘azab rahm uchmoq tomug‘ xilqati
Qilurdin bu erdi ikin hikmati.*

*Ki, qahr ila rahmat yoyib el aro
To‘lo aylag‘ay iki mehmonsaro.*

*Navoiy, so‘zungdin malul o‘ldi el
Uzun so‘zki qo‘y, harf boshig‘a kel.*

Va ayzan bo vujudi «Inna ollohu alo kulli shay‘i muhit»²⁸ki hech zarrai zarrotdin va hech shayyi ashyodin emaskim, Haqqi subhona bir lahza, balki bir turfat ul-ayni ularning sirri aloyinasidin voqif bo‘limg‘ay. Ibrohim²⁹ salovot ur-rahmoni alayhining vujudi gulbunig‘a yonar o‘tni gulzor, balki gulnor qildi³⁰ va Yunus³¹ alayhissalomning zoti gavharig‘a daryo qa‘rin, balki baliq qursog‘in sadaf etti. Namrud³²ning diloso dimog‘idin jabborlik fosid moddasi daf‘ig‘a pashsha nishin etitti va Od qavminipg sham‘i jaholatin uchurgali, balki xirmani hayotinsovurg‘ali yel xaylin tebratti. Bu nav’ adl va intikom bo‘laturg‘ach bovujudi anbiyo rahnamolig‘i yana olamnizomi va xaloyiq oromi uchun oliyjoh salotin va anjumsipoh havoqinni olamda qahramon va xaloyikg‘a hukmron etti. «Atiy‘u ollohu va atiy‘u-r-Rasul va uluvval-l amri minkum amriy»³³, bila uluhiyat aa nubuvvat marotibidin so‘ngra saltanat martabasiga tartib berdi. Har qaysi o‘z zamoni payg‘ambarining dini rivoji va o‘z ahli nasibasining shar‘i taqviyatida say‘i tamom va ehtimom mo lo kalom ko‘rguzgay ar va jihad kamarin ijтиҳод belig‘a bog‘lab, ud shar‘ kufrasi va-ul islom fijrasi daf‘ig‘a kushesh qilg‘aylar va adl suyi bila mulk bo‘stonig‘a nusrat bergaylar va siyosat qilichi bila kishvar harimidan fitna va oshub shaxsining bo‘ynin yug‘ay, to soyir riyo amnu omon maxodida muraffatul hol va qofai baroyo lutfu exson va aftonida forig‘ulbol bo‘lg‘aylar.

N a z m:

Alminnatu-llohi taborak va taolo³⁴

Kim biza yetishti bu sifat mansabi volo.

Kim, tengrilikka ul holiqni parastish qilurbizkim, har zamon eli har nenikim, tengri dedilar misli kunas va o‘t va but va bo‘zov va g‘ayri barcha aning mahluqidurlar va anbiyodin ul nabi dinidadurmizkim, barcha anbiyo shariatig‘a qalam tutmag‘an ilki bila Batlon³⁵ raqami chekti va kitoblarig‘a nasx xati tortti. Salotindin ul sultoni sultonnishon zamonida, balki oliv ostonida qulluqg‘a mashg‘ulmizkim,

Nazm:

*Bari shohlar ichra zoti aning,
Shahanshohlar ichra sifoti aning.*

*Maloik aro keldi ruh ul-amin
Rasul xaylida sayyid ul-mursalin.*

Sultonikim, «Assultonu zalla l-lohu fil arzain»³⁶ javohiri bilan man’, ilki humoyunfol chatri hoshiyasin murassa’ qildi; hoqonikim, abvob ul-muluk qiblat ul-hojot³⁷ koshisining buyla qadr me’mori holi oliv dargohi kitobasin muzayyan etti; sohibqironeki, zafar paykar livosini «ana fatahno laka fathan mubayyanan»³⁸ gulistonidin esgan nasimdin o‘zga nima mutaharrik qila olmas; kishvaristoneki, fath javohir qilichini va «yansuruka ollohu nasran azizan»³⁹ zo‘rxonasida varzesh tobkon qo‘ldin o‘zga qo‘l cheka bilmas; toji naxshabiki, oliyqadr taxtin hikmati najori «asliho sobitun va far’aho fi-s samo’in»⁴⁰ shajarasidin tarkib bog‘ladi va taxtgirekim, humoyun fol tojin sun’ zardo‘zi va ash-shamsi va sahiho zar rishtasi bila tartib berdi: xilofatpanoxike, «Inni joilun fil arzi xalifatu»⁴¹ oyinidurur, aning sha’nida nozil vaadolat shiorike, «adlun soaten yo‘ voziyu amala saqlayna»⁴² mujdaidurur, aning bobida xosil; sipehrqadrekim, xutbai minbarin «Inna ollohu ya’muru bil adli val ehson»⁴³ rivoji birla mushtariyning olti poyalig‘ minbarig‘a yetkurdii; anjumsipohike, shikkai axtarin «va ammo s-soila falo tanxo‘ra»⁴⁴ ravnaqi bila savobitning to‘qquz pardaliq manzaridin oshurdi.

Nazm:

*Shahi shahriyoron jahon xusravi,
Falak rif’ati Mushtariy partavi.*

*Mamolikda Jamshidi⁴⁵ farxundai,
Ne Jamshid, xurshidi raxshandai.*

*Falak sham’i ra’yi muniri aning,
Maloyik chirog‘i zamiri aning.*

*So‘zi mahzani roz ganjinasi,
Yuzi jilvai zot oyinasi.*

*Jamolida shams uz-zuho jilvagar,
Hadisida ruh ul-qudsdin asar.*

*Jabinida anvori shohanshahi
Kalomida ahyoi ruxullahi.*

*Biyik kasrig‘a to‘qquzunchi falak
Ul atlaski, yoyg‘aylar el farshdak.*

*Urub kunguri muhrdek toblar,
Malak xaylig‘a turfa mehroblar.*

*Falak bog‘i johida nilufare,
Bo‘lub anda har jola bir axtare.*

*Chu oltin sochib ilki andog‘ki, barq
Hayodin bulutlar bo‘lub terga g‘arq.*

*Favokih chekar tosi nilin qadah
Kuruha otar yosi qavsi, quzax⁴⁶.*

*Hilol eshiki xalqasig‘a nishon,
Vale anda zanjir o‘lub kahkashon.*

*Magar barqi kom ashhabidur sipehr
Anga oyna ko‘zgusi raxshanda mehr.*

*Falakdin itikrak xiromi aning,
Qilib barqni tiyra komi aning.*

*Egarmakda yo‘q charxi davvordek
Ki, bir nuqta davrida parkordek.*

*Yugurmoqda chunkim bo‘lub po‘yasanj
Nazar payki qolib, tutub oni ranj.*

*Borishda ne dey sun‘idin sarguzasht,
Falak tavsnidin chiqib dasht dasht.*

*O‘zi devu devonavash paykari,
Nazarda pari chehra, balki pari.*

*Bu devu pari uzra sulton malak,
Ne sultonki, alhaq, Sulaymon⁴⁷ malak.*

*Chu u ilkining bahri andog‘ amiq
Ki, yuz Hotami Toiy⁴⁸ anda g‘ariq.*

*Yoruq ra'yining mehri andoq munir
Ki, oldida xurshid bir kursi fatir.*

*Falakqadrlarning niyozi anga,
Falakdin laqab shohi G‘oziy anga.*

*Dema ayni insonkn, insoni ayn
Ham insonu ham aynu Sulton Husayn.*

*Zih taxti johingga bir poya charx,
Na poyakim ul poyaga soya charx.*

*Ha, ey toji qadringg'a gavhar quyosh,
Ne gavhar sadafdin muhaqqar quyosh.*

*Falak bahru sen durri maknun anga,
Jahon lafzidin turfa mazmun anga.*

*Alo to jahon hujra, ko 'k saqf erur,
Ulus naqdi umri anga vaqf erur.*

*Taning hujrasi jon qushig'a panoh
Tanu joninga voqif o'lsun iloh.*

Bu muqaddimotdin so'ngra haqoyiq ahlig'a ravshan va daqoyiq haylig'a mubarhan erkinkim, haqqi subhona va taolo bo vujudi ulkim olam nizomi va bani odam intizomi va ammadqa darband va muvoing'a hojatmand ermas erdi. Hikmati ilohiykim, sirridin hech muhaqqiq jonig'a asar va hech mudaqqiq ko'ngliga xabar yo'qtur, muqtazi ul bo'ldikim, olam ahli va bani odam haylig'a olin miqdor xulafo hukmron va xilofotshior salotinnofizi farmon bo'lg'aylar. Bularg'a xud diyonatlig' madadkordin ne chora va kifoyatlig' vazirdin ne guzir bo'la olg'ay erdi. Har oyinakim sultanat korxonasidag'i manosibdin har muchaga loyiq farosatoyin xushmandlarni va har chargaga muvofiq kiyosat tazyin xiradpayvandlarni sultanat umurig'a mutaalliq ishlar kifoyati uchun soyiri nosdin tanlab ommai xaloyiqdin sechib, amorot navro'zi bila sarafroz va vazorat zayluchasi uzra muomalapardoz qildilar va bu amrning juzviy va kulliy ishiga kulliy va juzviy kishini ta'yin ettilar.

To bu farxunda zamon va xujasta davronkim, bu jamshedi sohibqiron sultanat taxtin oldilar va bu xurshedi javohirfishon olam ahli boshig'a soyai marhamatin soldi - yuqorroq mazkur va burunroq mazkur bo'lg'ondek kulliy manosibning kulliyotidin juz'iy umrning juz'iyotig'a deganicha mutaammin va mutakaffil bo'lurdek el vojib va lozim bo'ldi. Chun zamonning azimushshon sodot va fuzalosi va davronning karimulxulq quzot va ulamosi va temuriynajod shahzodalar va «barlosiy»⁴⁹ nihod ozodalar va «arlotiy» ismlik sadrnishinlar va «tarxoniy» rasmlik ayshguzinlar va «qiyot» nasablik mutaayyinlar va «qo'ng'iroq» hasablik mutamakkinlar va «uyg'uriy» sifot baxshilar va «uyg'ur»chargalik yaxshilar va «cho'li»lik biyobonida jonsiporli qilg'on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg'on jonsiporlar va «jaloyir» g'avg'osi va «qavchin» alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig'a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug'lig'a payvand qildilar.

M a s n a v i y:

*Biri sandalini maqom ayladi
Biyik masnad uzra xirom ayladi.*

*Biri turk ayvonida osti muhr,
Biri sort devonida bosti muhr.*

*Biri rasmi bo‘ldi sadorat maob,
Biri ismi bo‘ldi vazorat iyob.*

*Biri komyob o‘ldi muhronadin,
Biri komjo‘y o‘ldi parvonadin.*

*Birisi qo‘shun sori chekti raqam
Birisi tuman sori urdi alam.*

*Biri topti dorug‘aliq ishratin,
Biri urdi sarhad sori navbatin.*

*Qiniqti biri rishvati shum ila,
Biri iktifo qildi marsum ila.*

*Agar xud zalil erdi, gar arjumand,
Bori bo‘ldi o‘zkomig‘a bahramand.*

Agarchi bu xoksorniig ota-bobosi ul hazratning obo va ajdodi xizmatlaridakim, har biri sultanat konining gavhari va shujoat beshasining g‘azanfari erdilar - ulug‘ marotibqa sazovor va biyik manusibqa komgor bo‘lg‘on erdilar.

Ammo bu haqir hech nav’ xizmatqa o‘z qobiliyatimni chenamagan jihatdin va hech gurluk mashaqqatqa o‘z quvvatimni anglamog‘on sababdin borcham tamanno eshigin yuzumg‘a madrus va jam‘ muddaolar abvobin ilayimga masdud qilib erdim. Xayolim bukim, chun olamning xiyonati va olam ahlining diyonati ravshan va jahonning ishvanamo ajuzasining vafosizlig‘i va hayotning ruhafzo mahbubasining baqosizlig‘i muayyan-dur.

*Hamul avloki daf’ aylab alamni,
Tajarrud ko‘vida qo‘ysam qadamni.*

*Fano kunjini mujgondin supursam,
Hamul mujgon sirishkidin suv ursam.*

*Qilib masnad qanoat bur‘yosin,
Kiyib debo kibi uzlat palosin.*

*Ne ko‘kka, ne quyoshqa insa boshim,
Buzuq uy bo‘lsa - ko‘k, ravzan-quyoshim.*

*Agar nafs etsa mayli lolau bog‘,
Yuzin «nun» nuqtasidin aylasam dog‘.*

*Agar ko‘z qilsa mardum ashkini ol,
Tilab kofurgun yuz anbarin xol.*

*Suvosam oni ko‘rmay deb balosin,
Gaju ohaq qilib oqu qarosin.*

*Qulooqqa bo‘lsa gardon xalq uchun fikr
Eshittursam sadoyi xalqai zikr.*

*Og‘iz shoxi shakar istarni bilsam,
Ani misvok ila xursand qilsam.*

*Dimog ‘im za’fig‘a ashk etsa hosil,
Yuzum uzra fano gardini kahgil.*

*Tarab sinjobidin tan istasa kom,
Anga mehnat qo‘lida bersam orom.*

*Ayoqqa aylasam zanjir monand,
Musallo davrining zanjirasin band.*

*Havog ‘a jism tufrog ‘in sovursam
Ko‘ngul mulkida davlat taxtin ursam.*

*Gahi qilsam tavofi gulshani quds
Gahi bo‘lsam muqimi ravzai uns.*

*Xaloyiqdek tilab zohir huzurin,
Jahonning chekmasam jomi g‘ururin,*

*Tutub har shug‘uldin dunyoda go‘sha,
Muhayyo aylasam uqbog‘a to‘sha.*

*Ajal payki qachonkim yetsa filhol
Vadiatni-degach-topshur. - Desam: - ol.*

R u b o i y:

*Sen jon varaqida buyla aylab tahrir,
Ul safhada bu naqshni aylab tasvir.
Tag‘yir etar ermish oni kilki taqdir,
Taqdir ishiga, rafiqlar ne tadbir.*

Kim, nogoh saltanat gulshanidin inoyat nasimi esa kirishti va xilofot borgohidin hidoyat qosidi yetishti va davlat manshurin ilgimga berdi va ul manshur mazmuni bu erdi:

*K-ey fazl jahonining sipehri,
Yo‘q, yo‘qki, o‘shul sipehr mehri.*

*Tab’ingg‘a dami bo‘lur ne vorid,
Yuz yil biti olmatyin Atorid.*

Sen garchi guhar do‘kon ochting,

Lekin bu guharni elga sochting.

*Fikring chamanida ko‘p rayohin,
Lekin bo‘lub anda xalq gulchin.*

*Nazming gulidinki dahr to‘ldi,
Degilki sanga ne bahra bo‘ldi.*

*Lafzingdin ulusqa vajdu holat,
Yetmay sanga bahra, juz malolat.*

*Sen qon yutub, el bo‘lub qadahkash,
Eldin sanga yetmayin dami xush,*

*Sen el boshig‘a bo‘lub guharposh,
Bir pok guhar demayki, shobosh.*

*Emdiki, tarab zamoni yetti,
Davrondin alam nishoni ketti.*

*Oldi qo‘lumiz jahon diyorin,
Ochdi kuchumiz falak hisorin.*

*Oy-kunni naqora qildi davlat,
Choldi bizning otimizga navbat.*

*Olamni bizing quyosh yorutti,
Haq markazida qaror tutti.*

*Bu damki, tarabqa qolmadi so‘z,
Baxtingg‘a ochildi uyqudin ko‘z.*

*Ham subhi umiding o‘ldi tole’,
Ham mehri muroding o‘ldi lome’.*

*Chun soqiyi davr jomi ishrat
Tutti, yana chekma zahri mehnat.*

*Tavqi’ yetishgach ayla lozim,
Kim, jon bila bo‘lg‘asen mulozim.*

*To lutf tengiziga tushub mavj,
Tutqay bori ishing ul sifat avj.*

*Kim, oy uza qo‘yg‘asei qadamni,
Kun lavhiga chekkasen raqamni*

Mehr oltunidin qazo qilib hal

Ul safhani aylagay mujadval.

*Har baytini mehri gavharafshon,
Anjum bila aylagay zarafshon.*

*Necha biyik aylasang so‘zungni.
Ondin biyik etgabiz o‘zungni.*

*Yo‘qtur sanga vaqt go‘sha tutmoq,
Ishrat gulin oh ila qurutmoq.*

*Chun hukmni anglading dam urma
Balkim dam urarg‘a dag‘i turma.*

*Qulluqqa ko‘ngulni chust bog‘la,
Xizmatqa belingni rust bog‘la.*

*Har necha bu so‘z demak kerakmas,
Chun rostdurur kerak kerakmas.*

*Tushtum mane notavon arog‘a
Yuz ranju balou ibtilog‘a.*

*Chun xost bu nav’ edi qazo ham
Men xastai zori benavo ham.*

*Qullarg‘a o‘zumni hamdam ettim,
Qulluqqa belimni mahkam ettim.*

Agarchi daryog‘a qatra madadkorlig‘idin sude va yadi bayzog‘a zarra havodorlig‘idin maqsude mumkin va mutasavvar ermas, ammo ul qadar xizmatdakim, xastag‘a quvvat erdi va ul miqdor mulozamatdakim, bu shikastag‘a tengri toqat berdi, jonsiporlik rasmin unutmadi va ehmol va tasohul ravo tutmadim. Chun niyatim gulistonida zarq va riyo xoshoki noyob erdi va xizmatim bo‘stoni sidq va safo sahabidin serob. Har oyinakim, har soat ro‘zgorim dimog‘i o‘zga nav’ nasim fayzidin muattar va har lahza umidim chirog‘i o‘zgacha tarbiyat mash‘ali nuridin munaavar bo‘la boshladi to oz fursatda ul xazratning vahyasarlik so‘zi va ilhom xosiyatlik va‘dasidek so‘zumga pok maoniy gavhari toj va o‘zumga pok gavharlik ahli maoniy muhtoj bo‘ldi. Xizmatimda ozodalar ishi bandalik izhori va ilayimda sarafrozlar da‘bi sarafkandalik atvori.

Ruboiy:

*Iqbol mutiu baxt yovar bo‘ldi,
Xurshed raiyu sipehr chokar bo‘ldi.
Olam elidin kimga muqarrar bo‘ldi
Bu martabakim, manga tuyassar bo‘ldi.*

Bu inoyatlar muqobilasida xizmate topay deb, dastu po urmoq mushkil va bedastu polardek boqib turmoq andin mushkilroq.

Misra:

Mushkiledur ishqdin har dam manga mushkil aro

Bu tahayyurdin mutafakkir va bu tafakkurda mutahayyir erdimki, xirad piri badhollig‘im bildi va xushhollik yuzidin og‘oz qildikim,

Masnaviy:

*Navoiy, ne balo anduh erur bu,
O‘zungni solmog‘ing mundoq bo‘lurmu?*

*Angakim aqlu himmat yor bo‘lg‘ay,
Bu nav’ ishlar qachon dushvor bo‘lgay?*

*Quyoshdin tarbiyat gar topsa xoro,
Qilur yoqut ila la'l oshkoro.*

*Bulutdinkim, bo‘lur serob tufroq,
Mulavvay gul berur minoyi yafroq*

*Kishilikdin nechuk urg‘ay kishi dam,
Bo‘lub tufroq birla xorodin kam.*

*Shahekim, axtar o‘lsa durri toji,
Duo durrig‘a ko‘ptur ehtiyoji.*

*Rasulekim, rusulning sarvaridur,
Sipehri ofarinish axtaridur.*

*Agar siddiq bo‘ldi yori g‘ori,
Ham o‘ldi ankabuti pardori.*

*Kulekim, tiyra bo‘lmish gulxan andin,
Erur ko‘zgu jamoli ravshan andin.*

*Necha izhor ajzu notovonliq,
Gumon qilding bu ishni nuktadonlik.*

*Qo‘yub bekorlik farzona bo‘lgil,
Ilik ur ishgavu mardona bo‘lg‘il.*

Chun xirad bulbuli bu navolar tuzdi va tavfiq to‘tisi bu nag‘malar ko‘rguzdi - men haqiri notavon dag‘i aql girihkushoylig‘i va tavfiq rahnamoylig‘i bila ul hazratning qullug‘ida necha nav’ xizmatkim, dunyo sudi andin paydo va oxirat behbudi andin huvaydo bo‘lg‘ay, o‘zumga lozim tuttum va necha nav’ ishkim, xaloyiq duosig‘a bois va holiq rizosig‘a sabab bo‘la olg‘ay, qoshimda muqarrar qildim. Va tengri inoyatidin bu ishlar borcha tuyassar bo‘ldi.

Avval bu erdikim, ko‘ngul kishvaridin ul hazratning g‘ayrining xayolin azl etib, balki ixroj qilib, sidq bulutidin safo yog‘ini bila kishvarini g‘ayr gardidin yub, sulton xayolin bu taxtgohda saltanat masnadiga o‘lturtub, humoyun oti va ro‘zafzun alqobig‘a duoyi xayridin xutba o‘qub va muhabbat dog‘laridin sekka muzayyan qilib, bu iqlimni aning sultoni xayolig‘a musallam tuttum.

R u b o i y:

*Har kimki birov ishqiga bo‘lsa dilband,
Jon rishtasidin qilsa keraktur payvand.
Gar g‘ayr xayoli tushsa ko‘ngulga pisand.
Qilmoq kerak ul ko‘ngulni yuz ming parkand.*

Yana ul erdimkim, ul hazratniig davlatidin bovujudi ulkim, jamin tana’umoti jismoiy va murodoti nafsoniyg‘aki, dastrasim balki havasim bor erdi, ammo aning kishvari gulistonining harimi atrofida va mulki bo‘stonining chamanı aknofida ko‘rmas nimadin ko‘zumni nargis ko‘zidek ko‘r va eshitmas nimadin qulog‘imni binafsha qulog‘idek kar va tutmas nimadin ilgimni chinor ilgidek shal va bormas yerdin ayog‘imni sarv ayog‘idek lang va aytmas so‘zdin, bataxsis maxfiy asrorekim, gul xurdasi masallik g‘unchadek ko‘nglumda amonat topshurdi - ifshosidin tilimni savsan tilidek gung qildim.

R u b o i y:

*Shah xizmatig‘a birovki bo‘lg‘ay moyil,
Ko‘ru karu langu shal keraktur hosil.
Asrorining ifshosida gung aylasa til,
Bu mushkil erur, barchasidin bu mushkil.*

Yana ul erdikim, ul hazratning qullug‘in irtikob qilurda hech nav’ o‘z g‘araz va maslahatim mutasavvar ermas erdi, balki xos tengrilik uchun, dag‘i o‘zining muborak xotiri uchun, dag‘i musulmonlar, maslahati uchun erdi. Bu jihatdin xirad hokimi odil hukmi bila rostlik siyosatgohida g‘araz o‘g‘risini fano dorig‘a osib, insof dor ul-qasosida hirs qaroqchisi bo‘ynin qanoat qilichi bila urub, vujud shahrida muddao qasrini riyozat yomg‘uri bila yiqib, nafsoniyat bog‘ida orzu niholin intiqo‘ iligi bila qo‘ngarib, amal mazraida tavaqqu‘ xirmanin faqr o‘ti bila kuydurub, ul xirman kollarini fano yeligasovurdim.

Ruboiy:

*To hirsu havas xirmani barbod o‘lmas:
To nafsu havo qasri barafrod o‘lmas.
To zulmu sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.*

Yana ul erdikim, agarchi ul hazratning ravshan zamiri ko‘zgusi mazhari tajalliyoti ilohiy va xumoyun xotirining quyoshi matrahi, ta'yidoti nomutanohiydur. Pok xayolidin taqviyatig‘a sodiq va sof zihni va shar‘i mubin tamshiyotig‘a muvofiqdurd. G‘oyati riyoti va nihoyati ehtiyyoti bu hukmga muqtazi bo‘ldikim, nauzu billohki, agar bashariyat tag‘ofulidin sharif ro‘zgori havosida zulm bulutlari adl quyoshi yuzin yopardek bo‘lsa, bu qul zurvai arzg‘a yerkurgay, to ul bulutlarni nadomat ohi sarsari bila olamdin chiqorg‘ay va pokiza avqoti shabistonida agar bid‘at nasimi shariat sham‘ig‘a zarar yetkurgudek bo‘lsa, bu notavon parvona bo‘lg‘ay, to ul sham‘ni muhofazat hullalaridin fonusqa

kiyurgay. Bihamdillahki, ul tavr amre hodis va bu nav' ishe voqe' bo'lmadi, ammo bo'ldi ersa, dag'i hukmdin tajovuz qilmadim va o'zumni aroda ko'rmayin, ul ishni arog'a soldim.

Ruboiy:

*Taqririm agar yaxshi edi, yo'qsa taboh,
Alfozim agar yamon edi, gar dilhoh.
Arz etmagini chu hukm aylab edi shoh
Shoh anglamasa, bu xizmatim netgamen, oh!*

Yana ul erdikim, mamolik chun hargiz zulm yeli mazlum charog'ig'a mushavvish bo'lmoqdin va taaddin o'ti osoyish xirmanig'a zarar yetkurmakdin xoli bo'lmaydur. Har zolimekim, jabborlig' tog'ida bedodiy qoplonining har holidin bir ko'z tikarkim, mazlum farog'ati kiyigin qayda ko'rgan va har changolidin necha sitam qullobi muhayyo qilurkim, ani nechuk sayd qilg'ay va har tishidin bir neshi zahrolud itirurkim, aning jon eltmagi mumkin bo'lg'ay, to ul nomurod kiyik a'zo va ahshosidin nafsi ammora sabuig'a kom va sabuiyat ishtihosig'a orom bergay. Va bu muqaddima zolim bila mazlum holidin kinoyat va bedodgar bila dodhoh ahvolidin hikoyatdurur.

Iligimdan kelgancha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatig'a intixol marhamin qo'ydim. Va iligimdin kelmaganni ul hazrat arzig'a yetkurdim. To zulm palangi terisidin kiyik sur'atlik bodpolar g'oshiyasig'a ziynat berdi va mazlum joni kiyigi ko'ziga amniyat marg'zorida qoplon dog'lar o'rniga lola dog'lari ko'rguzdi.

Ruboiy:

*Shah adli uyini aylayin deb ma'mur,
Sa'y ayladim ul qadarkim, erdi maqdur.
Har nechaki tengridin yetar sham'g'a nur,
Parvona erur joni kuyardin ma'zur.*

Yana ul erdikim, ulus aro akobiri izomdin soyir avomg'acha va sipohi aro amorat masnadida bazm tuzggondin mazallat kapanagida ajz ko'rguzgong'acha va raoyo aro tavongarlik jo'ybor va dashtini sipehr mazraasidek ko'kortib, tamavvul mahsullarin hosil qilg'ondin sipehrdek ikki bukilib xo'sha termakta oqshomg'acha, ro'zgori kafofig'a parvindek bir ovuch dona tergongacha na yasog'liq aro boyliq marg'zori ichra har suruk qo'ydin yilda hamaldek ming qo'zig'a qone' bo'limg'ondii yo'qsizlik shiromlarida qo'y kutib, yilda jadydek, besh o'chku muzd olg'onni g'animat bilgongacha kishi oz topilg'aykim, bu notavon bila ishi tushmamish bo'lg'ay. Bu ishlar muqobalasida muzd tilab minnat qilmadim, balki muzdparvarg'a minnat dag'i tuttilar qabul etmadim.

Ruboiy:

*Eldin manga garchi g'ayri zahmat yo'q edi,
Ayb ermas, agar muzd ila minnat yo'q edi.
El berdilar, ammo manga rag'bat yo'q edi,
Shah davlatidin bularg'a hojat yo'q edi.*

Yana ul erdikim, chun ul hazrat xukmi jihatidin va taklifi sababidin maosh mazrasasi yobis qolmasun deb, biror nima ziroatqa ishtig'ol ko'rguzdim. Chun ul nigimda qila olg'uncha shariat jonibi mar'i va insof tarafi malhuz erdi, tengri inoyatidin ko'p mahsullar xosil va g'animatlar vosil bo'la

kirishti. Bu jumladin o‘z maoshimg‘a soyir avomdin birining maoshi o‘tguncha issiq-sovuq daf‘i uchun bir turma to‘n dag‘i mung‘a munosib yemakka qone’ bo‘lub, qolg‘onning ba’zisin ul hazratning mulozamati maslahati uchun, kelish-borishg‘a va navkar va mutaallaqlar ulufasig‘a va cherik yarog‘ig‘a sarf qildim va ba’zini aning saboti davlati uchun duo, davomi sultanati uchun toat qilur mustahiqlarg‘akim, shomdin saharg‘acha sipehrdek ruku’da xam bo‘lub, anjum kibi tasbih evururlar va tongdin oqshomg‘acha olamdek yaxshi-yomonnnng nomuloyimlig‘in ko‘rub, quyoshdek bir qurs bila maosh o‘tkarurlar - yetkurdum. Va ba’zinikim, jami’ maunot va borcha taklifotdin ortti, biqoi xayr bino qildim va bu mazkur jami’ xayrot va mubarrotning hasana va savobini ul hazratning nisori va tufayli qildim va aning xujasta avqoti va humoyun ro‘zg‘orig‘a kechtim va bu da’vo ta’nisig‘a qoziyal-hojot hazrati va qazo va qadar mahkamasida anbiyoi mursalin va maloyikai muqarrabini tonug‘ tuttum.

R u b o i y:

*Maqsud chu shohi dinpapoh o‘ldi manga,
Uqbo sori har ne zodi roh o‘ldi manga,
Majmuini qildim oning olliga nisor,
Bu hujjat uchun tengri guvoh o‘ldi manga.*

Va ul biqoi xayr jumlasidin biri budurkim, tarix sekiz yuz sekson birdakim, ul hazrat ko‘shki Marg‘ani yonida bu faqirg‘a saro va havli yasag‘ali yer inoyat qildi va bu faqir aning imoratig‘a mashg‘ul bo‘ldum. Va alhaq ul yeredur, Hirot dor us-saltanasining ravzai eram ziynatlik va bayt ul-xaram manzalatlik baldai fohirasining shimol haddidakim, Gozurgochning ushoq toshi la‘li koni va gavhari ummoniyg‘a tannoz va qaro tufrog‘i mushki azfar va tablai anbarg‘a ta’nasoz tog‘e voqe‘dur, aning etagidakim, janubiy haddi bo‘lg‘ay, bu tog‘ bila ma’murai mazkuruning mobaynida voqe‘dur. Ul yerning havosi ruhparvarlikda jannat havosidin nishona aytur va yeli hayotbaxshlikda firdavs nasimidin namuna ko‘rgo‘zur. Va tog‘ jonubidin jo‘yi Navro‘ziy o‘tarkim, sadosi g‘ulg‘ulasidin labtashnalar qulog‘ig‘a mujdai obi hayot taronasi yetar va shahr jonibidin Injil suvi oqarkim, «aynan tusammo Salsabil»⁵⁰ zulolidek tabiat komig‘a yoqar. Moziy salotindin ul yerda bog‘ yasarg‘a amorat siytni solg‘on amirzodalar, balki saltanat ko‘sinsin cholg‘on shahzodalar orzu niholin tikib, maqsud mevasi topilmag‘on va tamanno gulbunin ekib, qabul guli ochilmag‘ondur. Hosil bu faqir ul yerda o‘ttuz jerib⁵¹ yerni devor tortib saroy imorat qilib, bog‘chasig‘a har turluq ashjor bila safo va nazrat va har chamanig‘a har nav’ rayohin bila zebu-ziynat berdim va aning ta’rifi mundin o‘tmaskim, ul hazratning mavkibi gardunsoyi necha qatla ul manzilni g‘ayrati bihishtibarin va maqdami falakfarsoyi necha navbat ul ma’manni rashki nigorxonai Chin qildi. Va umidim budurkim, hamisha ul yer bu davlatka sazovor va mudom bu xoksor ham bu inoyatka barxo‘rdor bo‘lg‘aymen. Insholloh taolo.

Va bu Marg‘ani ko‘shki bu havli muhavvatasining haddi janubi bilan haddi g‘arbiysining mobaynida voqe‘ erdi va ul imorate erdi - burun chog‘da tarh solg‘on va qadimda yasalg‘on binosi toshdin erdi. Hamonoki, ul toshni mehnat tog‘idin tashib erdilar va devori, xom kirpichdin erdi, ul kirpichni anduh tufrog‘i va hasrat suvidin quyub erdilar, tarxi ikki oshom erdi: quyig‘i oshomi tiyrilikdin firoq shomi va anda nuhusat bumlari bila zulmat xuffoshlarining oromi, yuqorig‘i oshomi buzug‘lug‘din firoq ahli ko‘ngli evi din nishoni va anda navmidlik cho‘g‘zları bilan motamiy libos kabutarlar oshyonи.

*Yiqib ayvonini sayli zalolat,
Yoqib devoridin gardi malolat*

*Qorong‘u sahni andoq shomi dayjur
Ki, xurshed anda kirsa topmag‘ay nur.*

*Bo‘lub mutavorilar oromi anda
Fujuru fisq ahli komi anda.*

*Ko‘ngulga keldi bukim, gar berur dast,
Ani qilmoq kerak tufroq uza past.*

*Binoe tarh qilmoqkim hamisha,
El etgay shah duosin anda pesha.*

Chun bu muvajjah hayot ko‘ngulda ustuvor bo‘ldi va bu maqbul andisha xotirda qaror tutti, ul binoyi dayrpayvandni hamvor qilib, o‘rnida madrasa bino qilildi va ul asosi kaliso monandni buzub, yerida masjide solildi.

*Shah davlatidin itti bu dayru kaliso
O‘rnida bo‘ldi madrasau masjide bino.*

Va madrasadin kirgach masjid aning haddi g‘arbiki, qibla sori bo‘lg‘ay, voqe bo‘ldi. Va xushxon imom va xushovoz muqri mukarrar bo‘ldikim, saloti xamsani mahalla ahli bilan qoim tutub, ul hazrat duosiga mashg‘ul bo‘lg‘aylar. Va madrasaning to‘ridakim, haddi shimoliydur, gunbaze yasaldikim, surai Qur‘oniy va oyoti furqoniy adosida qiroat gulshanining Isaviy nafas andalibi xush ilhonlari va tajvid ravzasining Dovudiy nag‘ma foxtan shirinadolari har kun xazrati risolatpanoh mutahhar ruhoniyat uchun bir si pora kalom o‘qub, ul hazrat duosi birla xatm qilg‘aylar. Va gunbazni «Dor ul-huffoz» deyildi. Va madrasaning sharqiy va g‘arbiy suffasida ikki mudarriskim, birisi fiqh usuli va furui va birisi hadis furuva usuli⁵² aytqoylar va har dars halqasida o‘n bir tolibi ilmkim, muvazzaf bo‘lg‘aylar - ta‘yin qilildi. Va bu madrasag‘akim, xulusi ixlosdin yasaldi - «Ixlosiya» ot ko‘yuldi. Va bu «Ixlosiya» madrasasi janubiy haddining toshidinkim, Injil arig‘i oqar, ul arig‘ning janubiy haddikim, qirog‘i bo‘lg‘on shoriy omdurkim, ul hazrat bino qilg‘on madrasadinkim, har toqi ulvi rif‘atdin sipehri muqarnas ravoqig‘a kungira yetkurubtur va har gunbazi sumuzi manzilatdi falakning ko‘k gunbazidan bosh o‘tkarbdur, har mudarrisi qoshida Mushtariykim, oltinchi ayvon donishmandidur - omiy va nodon va har tolibi ilmi olinda Atoridkim, ikkinchi suffa mustaiddidur - tifli abjadxon, xodimlari sufrasida oy girdasi va quyosh qursi ikki fatir va tabboxlari taxtasida kahkashon shakli un sepgan bir zuvola xamir.

R u b o i y:

*Bu buq’aki to binosi bunyod o‘ldi,
El hojat ila faqrin ozod o‘ldi.
Darveshu g‘ani ne‘matidin shod o‘ldi,
Bu vajhdin oti Ne‘matobod o‘ldi.*

Bu shorii om bu Ne‘matobod jonibdin kelib, ko‘prak yo‘l Injil arig‘i yoqasi bila Mahdi ulyo va Bilqisi uzmo Gavharshod og‘o «navvarallohi maraqadha»⁵³ madrasasi sorikim, koshisi girehkorlig‘idin aql me’mori hayron va shamsasi zarnigorlig‘idin xirad muhandisi sargardondur - borur.

Va bu «Ixlosiya» madrasasi muqobalasidakim, mazkur bo‘lg‘on shori‘ning janubiy haddi bo‘lg‘ay xonaqohe bino qilildikim, ul Hazratning davlati davomi va saltanati saboti uchun quyiroq mashrut bo‘lg‘on dastur bila har kun fuqaro masoking‘a taom bergaylar va har yil ehtiyoj ahlig‘a kiyg‘uluk yetkurg‘aylar. Va bu xonaqoh to‘ridakim, ham janubiy taraf bo‘lg‘ay - gumbaze bino qilildikim, chun

bu mahalla ul Hazrat davlatidin ma'mur va eli dag'i qalin va masrur bo'lubturlar va bu jamoat bila masjidi jome'lar orasida juzviy masofate bor. Qishda ba'zi sovuq va balchig' uzri bila va yozda ba'zi gard va issig' baxonasi bila «Ya ayyuha-l-lazina omanu iza nudiya li-s-salavati min yavmi-l-jum' ati fas'u ila zikri-l-lohi va zaru albay»⁵¹ amridin g'ofil va aning savobidin otil erdilar, muqarrar qildimkim, ul xonaqoh bilagun bazda jum'a namozi qilg'aylar, shoyad ul jamoat har nav' nomasmu' uzr bila ul davlatdin mahrum va bu saodatdin bebahra qolmag'aylar, Dag'i xatib va muqri va imom va ulcha bu amrda zaruratdur - muayyan bo'ldi.

Va «Ixlosiya» madrasasi o'trusida bu xonaqohg'akim, imorati har nav' riyo va g'ashdin xoli erdi va xotirg'a ko'p taraddudin xalos berdi: «Xalosiya» ot qo'ydum «La xalasa illa bil ixlosi»⁵⁵.

Hirot dorus-saltanasida va tegrasida harne mustag'al va dakokin va bog' va yer va korizkim, ul Hazrat oboni davlatida bu faqirning mulki erdi va alarning bay' va shirosida shar' qavoidin ko'p mar'iy tutulub erdi va baholaridin bir diram mavquf qolmaydur edi. Andoqkim, bu ma'nig'a aimmai islom, balki xavos va avomdin ko'pi voqifdurlar va bu bobda tahsinlar qilib, insoflar berurlar va muddatlar bu faqirning tasarruf qabzasida va tamalluki ilgida erdi - bu biqo'g'a vaqfi sahihi shar'iy qildimkim, bu ikki buq'aning imorati va sakanasining vazoyifi bila borchha maunati andin hosil bo'lib, shart qilg'on dastur bila sarf bo'lg'ay.

Yana ul Hazratning falak martaba dargohida va sipehr manzalat borgohida arzadoshtim budurkim, tiriklik bo'stonidinkim, adno nilufarin sipehri axzar bila teng tutsa bo'lmas va hayot gulistonidinkim juzviy sarig' gulin xurshedi xovarg'a o'xshatsa bo'lmas. G'araz yigitlik chamanining gulbuni xujastasi va maqsud shabob gulbunining toza guldastasidur. Bihamdilloh val-minnaki, mening bu hayotim gulbunining gullari ul Hazratning xizmati bahorida ochildi va yigitligim ashjorining shukufalari dag'i ul Hazrat mulozamati havosida sochildi va ul gullardin ko'p maqsudlar navbovasi hayotim komin bahramand etti.

Emdikim, hayotim gulshanining bahor xazong'a yetishti va gulshanda ochilg'on yigitlik gullari to'kula kirishi. Sabzasi tabiat havosi burudatidin oqardi va lolasi kuhulat sovug' nafaslaridin sarg'ardi, sunbuli serobi marg'ulalaridin tob ketti va niholi sarbalandi, ajal sarsaridin fano tufrog'iga yiqilurg'a yetti. Ul Hazratniig muabbad davlatidin va rafe' himmatidin ko'nglumga kechmagan komlarg'a komgor bo'lubmen va tushumga kirmagan maqosidg'a iqtidor topibmen. Ikki orzu rishtasidin o'zgakim, girixi ko'nglum pardasidin yechilmadi, ikki murod gunchasidin o'zgakim, tuguni jonim gulshanidin ochilmadi.

Ammo umidim uldurkim, bu ikki umidim mevasidin dag'i barumand va murodim budurkim, bu ikki murodim gavaridin dag'i sarbaland bo'lg'aymen va bu orzumandlig' xorxorining tikani ko'nglumda sinmag'ay va bu murod gavarining yog'inin qatradek tufroqqa eltmagaymen.

Birisi budurkim, chun kishiga abadiy davlat va sarmadi saodat va hayot chashmasining navidi va najot manzilining umidi islomning besh sutunluq zotulumodig'a kirmaguncha mumkin ermas va bu xams-ul-muborak panjasiga ilik urmog'uncha hech ish natija bermas. Avval ul kalimai tavriddur. Shukrkim oni alifdek jonim orasida naqsh etibmen. Ikkinci salavoti xamsadur. Bihamdillohkim, oni naydek zehn aro sabt qilibmen. Uchunchi ramazonning o'ruz kunining ro'zasidur. Shukrullohkim, oni lomdek qalbimda yoshurubmen. To'rtinchchi zakotdur. Jonim naqdi ul tengriga zakotkim, ko'nglumga nasabqa yetkuncha mol zaxira qilmag'aymen, solmadi va nasabqa yetgan mol zakotin ayirg'uncha ilkimda qolmadi. Beshinchchi Hajdurur va ul bay uzri tuyassar bo'lmayin hamonoki, islom shaxsi bir kishig'a o'xsharkim, onda xos xamsadin to'rti boru bas. Muqarrardurkim, beshalasi - xoskim bo'lmasa muvajjab nuqsoni bo'lur va bu mazkur bo'lg'on ikki orzudin biri muborak safardurkim⁵⁶, islomim shaxsi besh hisdin birining o'ksuklugi jihatidin noqis bo'limg'ay va musulmonlig'im panjasি bir barmoq yo'qlig'idin ma'lul qolmag'ay.

Ul saodatoyin qofilakim, ul bodiya sorikim, shohrohi jo'yborida sarob hay'ati chashmai hayot zuloli va ul zulol atrofida har mug'aylon butasi gulshani najot niholidur, azimat qilsa, agar qofilasolorlik chatri soyasida yer topmasam, yer yuzida soya kibi jism bandi o'zluk qaydidin qutulib,

ul qofilani erishsam va agar mirhojlik mahmili haramida hukmron bo‘la olmasam, jarasdek chok ko‘ksumda iztiroblik ko‘nglumdin fig‘on tortib, ul mahmil tufayli maqsadqa yetishsam.

*Menikim, bu savdo nizor ayladi,
Havas ilgida beqaror ayladi,*

*Ne imkonki, topqay qaroru sukun,
Birovkim, bu fikr etgay oni zabun.*

*Urarmen qadam toki borg ‘uncha gom
Ki, bo‘lg ‘ay muyassar menga ushbu kom.*

*Agar bo‘lsa bu yo‘lda umrum talaf
Chu bu yo‘ldadur ul ham erur sharaf.*

*Va agar bo‘lsam o‘z komima bahramand
Zih mulki jovidu baxti baland.*

Va bu muqaddimotdin g‘araz bukim, ul sidrai sipehrtimsol davrida suhokirdor va ul qubbai xurshedminvol davrida zarravor evrulurda firoq zanjirida ishtiyooq silsilasida halqa bo‘lg‘on qadimni tuz etib, ul maqsud eshigi halqasig‘a ilgimni qullob qilib, ul Xazratning qiblai iqbol va ka’bai omoldek dargohining sabot va davomi uchun duo qilgaymen.

Va ikkinchi murodim ulkim, ul hazratning g‘oyatsiz inoyatlari va nihoyatsiz shafqatlari muqobalasida yuqori mazkur va sadrda mastur bo‘lg‘on xizmatlardin bu faqiri shikasta va bu haqiri dilxastag‘a munosibroq xizmat ul erdikim, zubdai avqotim va xulosai hayotimni ul Hazratning madhi zoti va ta‘rifi sifotida sarf qilsam erdi va ul bobda g‘arro qasidalar va rangin g‘azallar va matbu‘ masnaviyalar va masnu‘ insholar, balki har nav’ nazm va nasrdin kitoblar tasnif qilsam erdi va mujalladlar tartib bersam erdi, to ul hazratning farxunda oti bu vasila bila ko‘p yillar ro‘zgor sahifasida mazkur va humoyun zoti bu vosita bila ko‘p qarilar ro‘zgor ahli tilida mazkur bo‘lsa erdi.

Ammo bu jihatdinkim, ul Hazratning baski iltifoti sahabidin ehtimom yomg‘uri bu xoksor ro‘zgorig‘a nozil va ehtimomi bo‘stonidin iltifot shamoli bu benavo holig‘a shomildur - elning taraddudi va ulus ixtiloti, arzol tamalluqi va ashrof inbisoti va xavos ikromi va avom g‘avg‘osi, zolim ibromi va mazlum alolasi, raoyo g‘ulusi va yasog‘lig‘ yorug‘usi, tama‘ ahlining nohamvor muloyamati va talab xaylining nohanjor mulozamati, juhhol sitamidin shevasi azo bo‘lg‘onlarning so‘gvorlig‘i va ammol qalamidin ro‘zgori qaro bo‘lg‘onlarning beqarorlig‘i, burchluq azobig‘a qolq‘onlarning yo‘lum boshida turmog‘lig‘i va farzandin garav qo‘yg‘onlarning etagimga ilik urmog‘lig‘i va iflosoyin talabaning arzadoshti va ruq‘asi va falokatshior shuaroning qasida va qit‘asi, viloyatdin kelgan darmondalar holinnng taftishi va alarni rizolari bila uzatmoqning tashvishi, sarhad beklari elchisi taklifining zahmati va alarni dilxohlari bila qaytarmoqning mehnati, o‘zga mamlakatdin oz va orzu hamiyonin tikib, tama‘ xorlig‘in o‘zlariga tutub kelgan azizlar ibtilosi va alarning muxtalif muddaosi bila e‘zoz qilib, nomaqdur matlublari bila vatanlarig‘a yubormakning balosi, ozodlarning injulikka kirmak tama‘idin tashni‘i va bandalarning ozodliqqa chiqar umididin tavaqqun, tush ko‘rub kechgan mashoyix e‘lomin kelturganlar mubolag‘asi, yiroq yerdin o‘tgan avliyo salomin yetkurganlar muzyoyaqasi, to‘kquz xilol taklif bila bergonlarning tama‘ tishin berkitgoni, bolchig‘ tasbih zo‘ri bila o‘tkarganlarning talab rishtasin uzotqoni, solim jismin xastalikka solib, sharbax vajhi tilagonlar zarqsozlig‘i, tirik kishisin o‘lukdek yotquzub, kafan bahosi olg‘onlarning hiylapardozlig‘i, vaqfiylar bedodidin g‘arib talabaning ruq‘a tilamagi, amal ahli fasodidin zaif raoyoning siperish istamagi va majlisda hamsuhbatlig‘img‘a taaniy ko‘rguzgonlarning garonjonlig‘i va sayrda hamzonulug‘imga

tahattuk zohir etkanlarning sabuk inonlig‘i, Madinadin kelibbiz deb, iqomat yukin uyumda tushurganlar ziyofati, Makkaga borurbiz deb, tavaqqu’ markabin eshigimga surganlar rioyati, bu xaylning muddaosidin juzviy o‘ksuk tuyassar bo‘lsa, norozi borib, gila qilg‘onlarning hayrati va muddaolari tamom hosil bo‘lg‘onlarning bu rioyatni vazifa qilib yana kelmaklarining fikrati, yana dag‘i mashaqqatlar borkim, aytilda so‘z rishtasi uzolg‘ay va mujibi karh va malolat bo‘lg‘aykim, bu notavon bu holat vuqudin sun’ farroshlari subhning siymin supurgisi bila gunbazi lojuvardiy atrofi tun dudasidin qarorg‘onni supurib, qazo naqqoshlari ul lojuvard yuzin zarkorlik qilib quyosh jamshedi ul gunbazda zarnigor taxt uza bazm tuzgan chog‘din shom kashmirining siyoh jardalarining anbarin zulfin nasimi shabgir pareshon qilib, aning royihasidin tun zangisining savdoyi dimog‘i mushavvash bo‘lib, devonalardek falak otashkadasining kulin olamg‘a Sovurib, sun’ hakimi ani kakhashon zanjirig‘a tortar mahalg‘a degincha bu shikastaning tiyra ro‘zgorlig‘im va parishonlig‘im kashmiriy sohir ko‘zluklarning nasimi shabgir Sovurg‘on zulfidin afzunroq va iztirob va bechoralig‘im parivash tiflar sho‘xlig‘idin zanjiri junun asiri bo‘lub, gulxan o‘tig‘a yiqilg‘on devonadin ko‘prakdurur - bir majruhmenkim, bovujudkim, ur’yon jismimg‘a zahrolud neshlik chibin hujumi bo‘lg‘oy, qovarg‘a ilik dag‘i tebrata olmag‘aymen va bir ur’yonmenkim, bovujudi ulkim, majruh tanimg‘a junun arzolining muhlik toshi yoqqay, qochorg‘a qadam dag‘i ko‘tara olmag‘aymen. Agar bulajob holimdin shammai izhor qilsam, ul Hazratning nozuk mizojig‘a mujibi g‘am va muborak xotirig‘a boisi alam bo‘lg‘ay.

*Tuganmas subhi yo‘q shomi g‘amim sharhin savod aylab,
Varaq aflok o‘lub, ul tun qarosin - o‘q midod aylab.*

Kishi bu nav’ g‘amnoklik bila ne nishotomez alfozg‘a rabt bergay va bu parishonlik bila ne maoniy gavhari jam’ qilg‘ay. Ammo umidim borkim, ul Hazrat davlatidin oncha farog‘at dast bergaykim, kechgan hayotim baqiyasin va o‘tgan avqotim tatimmasin bir ishga sarf qilg‘aymenkim, jahon intihosig‘acha ul Hazratning zikri xayri bodasidin ulus xushhol va yana jahon ibtidosig‘acha aning avsofi hamidasi obi hayotidin xaloyiq komi molomol bo‘lg‘ay.

So‘z mutavval va maqsud muattal bo‘ldi. Avlo ulkim, ham duo sori ruju’ va Vaqfiyaning takmilig‘a shuru qililg‘ay.

R u b o i y:

*To sokin erur dahru falak musta’jil,
Sursun ikisiga hukm shohi odil.
Andin manga bu murod bo‘lsun hosil,
Medin anga bu bandalig‘ o‘lsun vosil.*

Omin, yo rabbil olamin!

Muqaddimot tugandi va keldi mahdudot: vaqf qilg‘on mahdudlarkim, shahr va tavobindadur, mujmalan mazkur bo‘lur va tafsili forsi vaqfiyalardakim, mukarrar aytilibdur va quzot sijilloti bila musajjal va soyir xaloyiq podshohdin gadog‘a degincha elning muhr va tonug‘lig‘i bila mukammal bo‘lubtur va koffai anom huzurida kofag‘a hukm topibtur, mazkur va mabsut voqe’dur, ehtiyyot vaqtin andin ko‘rub ma’lum qilg‘aylar: bu mujmalin ulcha ma’lum bo‘lur ijmol tariyqi biladur.

Va ul mahdudotdin avval mahdudedurkim, shahrda Malik bozori ichinda sharqiy haddida mashhur toqiyafurushlar timig‘adur va imorati ikki oshomdur va bozor sori ikki darbandi bor va har darbandida bir darvoza bir ayvon mavjuddir. Va bu tim muttasili janubiy haddida besh do‘kon bir-biriga muttasil. Yana bir do‘konkim, Xumi obg‘a mashhurdur, timning sharqiy haddida va bir namadfurushluq do‘kon boloxonasi bila ham bozorning g‘arbisida va bir po‘stinfurushlik do‘kon ham bor, bozorning

g‘arbisida boloxonasi bila. Yana bir timcha va to‘rt do‘kon bir-biriga muttasil. Iroq darvozasi toshida Alikabek hammomig‘a o‘tru. Yana bir timcha amalasi Malik darvozasi toshida ikki oshom imorat va sekiz do‘kon timchag‘a tutosh. Yana bir timcha va ikki do‘kon bir-biriga muttasil Musarrixning Kuhunduzida. Yana ikki do‘kon amalasi Bog‘i Zog‘on ko‘chasida voqe‘dur.

Va mahdudotkim, shahr tavobi‘idadur - Olinjon bulukida Farroshon mavziida yigirmi besh jerib bog‘, yigirmi uch jerib bir-biriga muttasil, yana bir qat‘a bog‘ bila yer o‘n sekiz jeribkim, andin ikki yarim jerib uzum bog‘i Osiyoyi Bodg‘a mashhurdur va bir qit‘a yer to‘rtjerib va bir nima Injil bulukidin Bog‘i Murg‘onda to‘rt jerib, Siyovushondin Xoja Shihob mahallasida bog‘ot va yuz jerib, Sabg‘ur bulukida Sabada Ravon kentida ikki qit‘a uzum bog‘i ham bir-biriga tutosh o‘n ikki jerib, yana bir bog‘ to‘rt jerib, Sifliy mahallasida necha bog‘ot oltmishe jerib taxminan, yana mazkur mahallada yigirmi olti jerib uzum bog‘i va to‘rt jerib yer ila bir qit‘a o‘n sekkiz jerib yer dag‘i o‘n ikki jerib bog‘, yana qit‘a o‘n to‘qquz jerib, yana bir daf‘a bog‘ bila yer tutosh o‘n jerib, yana bir qit‘a tok to‘rt jerib yana bog‘ot bila yer raqbasi dafaot bilakim, bir-biriga tutoshdur, yetmish to‘rt jeribkim, andin o‘ttiz to‘rt jeribi uzum toki va o‘zgasi yer bo‘lg‘ay, yana bir qit‘a yer va tok tutosh besh yarim jerib, yana bir bog‘ bir jerib va donge yana bir bog‘ to‘rt jerib, yana bir qit‘a yer bir jeribu chahordong, yana bir qit‘a bog‘ sekiz jerib, yana bir qit‘a yer uch jerib, yana necha qit‘a yer bir-biriga tutosh o‘n ikki jerib, yana bir qit‘a yer to‘rt jerib, yana bir qit‘a yer besh jerib, yana bir qit‘a bog‘ ikki yarim jerib, yana ikki qit‘a bog‘ va yer tutosh sekiz jerib, yana bir qit‘a bog‘ to‘rt jerib, yana necha qit‘a yer tutosh o‘n to‘rt jerib, yana bir necha qit‘a yer bir jeribu chahordong yana bir qit‘a yer yigirmi to‘rt jerib, yana bir qit‘a yer bir yarim jerib.

Va Bodg‘is viloyatida Tudagi korizi tamom va kamol bila va Gumburoq bulukida Paragach korizi va mukammal va Hirotrud viloyatida Gul kenti jami‘ bog‘ot va daraxton va saroy bog‘cha soyir arozisi bila.

Bu jami‘ mahdudotkim, hududi Vaqfiyalarda mukarrar mazkur bo‘lubtur dag‘i bu avroqta mujmal bitildi, yuqori mazkur bo‘lg‘on biqo‘g‘a vaqfi sahihi shar‘iy qilildi.

Arbobi vazoif - ikki olimi muttaqiy mudarris bo‘lg‘ay: har birining yilliq vazifasi ming ikki yuz oltun naqda, yigirmi to‘rt yuk oshlig‘kim, sulsi arpa, sulsoni bug‘doy bo‘lg‘ay. Har halqai darsda o‘n bir tolibi ilmkim borisi yigirmi ikki bo‘lg‘ay, olti a‘lo; har biriga oyliq naqda yigirmi to‘rt oltun, yilda bug‘doy besh yuk; vasat - sekiz; oylig‘ har biriga naqda o‘n olti oltun, bug‘doy yilliq to‘rt yuk; adno - sekiz: oylig‘ har biriga naqda o‘n ikki oltun, oshlig‘ yilliq uch yuk.

Olti xushxon hofizdin musaddirg‘a yilliq naqda besh yuz oltun, munosafa oshlig‘ o‘n bosh yuk; soyirdin har biriga yilliq naqda yuz sekson oltun, bug‘doy to‘rt yuk. Shayxqa yilliq naqda ming oltun, munosafa oshlig‘ o‘n yuk. Voizg‘a yilliq naqda besh yuz oltun, bug‘doy o‘n yuk. Imomg‘a, masjidi jome‘da xatib bo‘lub, maktab dag‘i tutg‘ay, yillik naqda ikki yuz oltun, bug‘doy o‘n yuk. Muqrig‘a yilliq naqda yuz oltun, bug‘doy besh yuk. Xonaqoh tabboxining yillig‘i naqda ikki yuz sekson oltun, bug‘doy besh yuk. Tabaqchig‘a yilliq naqda ikki yuz oltun, bug‘doy besh yuk. Bir farrosh va ikki xodimdin har biriga ikki yuz oltundin olti yuz oltun, bug‘doy besh yukdin o‘n besh yuk.

Mutavallikim, ikki obodon navkar asrag‘ay, viloyot ziroati nasaqi uchun, yillik naqda uch ming oltun, oshlig‘ o‘ttuz yakkim, bu mablag‘ va miqdordin chahor dongini o‘zi olg‘ay, du dongin ul ikkovga yetkurgay. Mushrifqa yilliq naqda besh yuz oltun, oshlik besh yuk, sohib ja‘mg‘a yillik naqda besh yuz oltun, oshlig‘ besh yuk

Ravotib⁵⁷ - ro‘za oyida har kecha o‘n besh botmon bug‘doy, besh botmon poludai dushobdin yo mavizobdin o‘ttuz tabaq, masoliq - ulcha ehtiyoj bo‘lg‘ay. Ro‘za iyidida o‘tmaq yuz botmon, halvo ellik botmon. Qurbon iysi avval kun o‘y bir son, qo‘y besh son qurban qilib, madrasa va xonaqohning fuqaro va soyir suk qonig‘a ularshg‘aylar. Ikkinchil kuni yigirmi botmon et bila yigirmi botmon bug‘doyni halim qilib, ellik botmon o‘tmak bila qismat qilg‘aylar. Rabi ul-avval oyi-ning o‘n ikkisidakim Rasul xatmidur, besh qo‘y masolihi bila osh pishurub, ellik botmon o‘tmak bila yigirmi botmon halvo tortqaylar. Rajab oyining o‘rtasi - istiftoh kuni yigirmi botmon halvo, ellik botmon

o‘tmak; sha’bon oyining o‘rtasidakim, barot bo‘lg‘ay, chalpak o‘ttuz botmon, halvo yigirmi botmon, qishning to‘rt oyidakim, qavs va jadi va dalv va hut bo‘lg‘ay, har kuni o‘tmak yuz adadkim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattab kilg‘aylar va agar et topilmasa jijig‘lig‘ osh pishurib, fuqarog‘a bergaylor. Yana sekiz oy har kun yigirmi botmon o‘tmak fuqarog‘a ulashg‘aylar.

Sharoit - avval shart andoq qilildikim, mutavalli har yil yuz po‘stin, yuz kapanak, yuz bo‘rq, yuz kafsh, yuz ko‘nglak, yuz tunbon sotqun olg‘ay, dag‘i har qaysini munosib mavsimda ikki Mudarris ittifoqi bila mustahiqlarg‘a har qaysig‘a istihqoqig‘a ko‘ra ulashgay. Va har yil to‘rt yuz oltun xonaqoh va gumbaz dag‘i madrasa va masjid va Dor ul-huffoz farshi uchun kiyiz bila bur‘yo va yorug‘lug‘ uchun xarj qilg‘ay va har nekim, xonaqoh va matbaxi uchun dasturxon va qozon va ayoq va tabaq va piyola va qoshuq va g‘ayri zolika kerak bo‘lsa tartib qilib bergay. Va xodim va farroshlar har kecha madrasa masjididagi dolonida, dag‘i «Dor ul-huffoz»da, dag‘i xonaqohning gunbazida va dahlezlarida sham’ yondurg‘aylar.

Yana shart ulkim, madrasa mavolisi madrasada baytutat qilg‘aylarkim, agar o‘zga yerda sokin bo‘lub, dars chog‘i hozir bo‘lmasalar, muqarrar qilg‘on vazifaning nisfin olg‘aylar va bu madrasa va xonaqohning mudarrisdin yo talaba va mutavalli va shayx huffoz va soyir amalasidin nomashru’ amre sodir bo‘lsa, ikki qatlag‘acha shar‘an har muvohazag‘a mustavjib bo‘lsalar, anga ko‘ra ta’zir va ihtisob qilsunlar. Uch qatla vujud tutqondin so‘ngra ixroj qilsunlar, dag‘i o‘rnig‘a yana kishi nasb qilsunlar.

Yana shart ulkim, qor oriturda muqri va xodimlar va farroshlar va tabaqchilar borchha bir-biriga madad bo‘lub, oritqaylar. Va ariq oriturdakim, bolchig‘ bila qumni arig‘ yoqasiga yig‘arlar - mutavalli muzdur tutib ko‘targay.

Madrasa va xonaqoh orasidakim, tosh solibdurlar - qachon buzulurdek bo‘lsa, yildin-yilg‘a marammat qilsunkim, musulmonlarga o‘tar - borur dushvor bo‘limg‘ay. Yana shart ulkim, har o‘ttuz yilda mutavalli «Vaqfiya»ni mukarrar yangi bitgan va asl bila muqobila qilg‘ondin so‘ngra quzot sijillot bila muqobala qilg‘ay to ayyom mururi bila churumagay. Yana shart ulkim, hech zamonda sadr gumashtalari va mutavallilar bu sarkorda madxal qilmag‘aylar. Modomiki, sharti voqif bila muvofiq amal qilg‘aylar - bu sarkor amalasidin jam‘ va xarj nusxasi tilamagaylor va hech nav’ nima alardin olmag‘aylarkim, alarg‘a halol va muboh emas.

Chun bu faqir mazkur bo‘lg‘on mahdudotni vaqf erkoniga iqror qilib, bir kishi tasarrufig‘akim, o‘z qibalimdin mutavalli qilib erdim - qo‘ydim. Quzoti izom murofa‘i shar‘i zimnida vaqfiyat hukmi qilib, bu mahdudotni o‘z sijilloti bila muvashshah va o‘z tavqioti bila muvazzah qilib, bu biqo‘g‘a muxallad va muabbad vaqf bo‘lg‘onini muqarrar va muayyan qildilar.

Ruboiy:

*Olam ishidin meni ma'lul et, yo rab,
Faqr emgagi tortarg‘a hamul et, yo rab.
Bu ishki, sening rizong uchun qilmishmen,
Ham ayni rizo bila qabul et, yo rab.*

Ruboiy:

*Yuz shukrki, buq‘alar mukammal bo‘ldi,
Vaqfi bu hududkim, mufassal bo‘ldi.
Sekkiz yuz ediyu sekson olti ta’rix⁵⁸
Vaqfiyasi ul kunki, musajjal bo‘ldi.*

Ruboiy:

«Vaqfnya»ki tortildi base zahmat anga,
To bo‘ldi sharoyit xatidin ziynat anga.
Mashrut ila kim kilsa amal rahmat anga,
Ulkim, munga tag‘yir berur, la’nat anga.

Ruboiy:

Bu qoidani kimki tuzar, bor bo‘lsun,
Tengri bori holatda anga yor o‘lsun.
Kim buzsa, buzuqluqqa sazovor o‘lsun.
Haq la’natu qahrig‘a giriftor o‘lsun.

VAQFIYa»NING IZOH VA TARJIMALARI

1. Tarj. ar.: Unga Ollohnning salovatlari bo‘lsin va bani odamni mukarram qildik.
2. Karrubiy — farishta.
3. Tarj. ar.: Ulug‘ zot biz uchun boshqa ilm yo‘q, sen haqiqiy ilm va hikmat egasidursen.
4. Tarj. ar.: Uning ne’matlari ulug‘dir, shonu shavkati buyukdur va undan boshqa iloh yo‘qdur.
5. Tarj. ar.: Xitoy — Chinda bo‘lsa ham ilm talab qilgin.
6. Tarj. ar.: Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘ridir.
7. Mahmud — Muhammad payg‘ambar laqablaridan biri.
8. Tarj. ar.: Olimlar bani Isroil payg‘ambarlari kabi ummatlidir.
9. Tarj. ar.: Olimlarning fazilatlari obidlarga nisbatan va quyidagilarga nisbatan ham afzaldir.
10. Baytning mazmuni: Olloh bilan birgalarning quvonchi nihoyatda yaqin (uning) sirlariga mahram. Baytning ikkinchi misrasidan «Qoba qavsayn»ning ma’nosи «ikki yoy oralig‘i»ni anglatadi va bu ibora eng, g‘oyat yaqin mazmunida ishlatiladi.
11. Tarj. ar.: Unga, uning yaxshi qarindoshlariga, pok sahobalariga va unga ergashganlarning hammasiga Ollohnning salovatlari bo‘lsin!
12. Tarj. ar.: Ollohdan bo‘lgan hech narsa yo‘q edi.
13. Tarj. ar.: Biron narsani xohlaganda, uning «Bo‘l»! demaklikdir. Va (u narsa) bo‘lur. (Yosin surasi, 82—oyat... ajab bir yashirin sir edim, o‘zni sinash uchun xalqni yaratdim).
14. Tarj. ar.: Odamning loyini o‘z qo‘lim bilan 40 kun qordim.
15. Tarj. ar.: Bu omonatni osmonlarga, yerga va toqqa ko‘ndalang qo‘ygan edik, ular uni ko‘tarishdan bosh tortdilar («Ahzob» surasi, 72 oyat).
16. Tarj. ar.: Insonni nutfadan (maniy) yaratadi.
17. Tarj. ar.: U rahmdilga Ollohnning salovatlari bo‘lsin.
18. Tarj. ar.: Hazrati Muhammadga Ollohnning salom va salovatlari bo‘lsin.
19. Tarj. ar.: U subhonahuning haqqi!
20. Tarj. ar.: Tagidan ariqlar oquvchi bog‘lar.
21. Tarj ar.: Biz ularning bo‘yinlariga tavq qo‘ydik.
22. Tarj. ar.: Iymon keltirganlar va xayrli ishlar qilganlar uchun behad ajri savob bordur.
23. Tarj. ar.: Sukunat — oltindir.
24. Tarj. ar.: Suradagi oyat ham shunday. (Ya’ni shu ma’nodagi).
25. Tarj. ar.: Kim bir deb o‘qisa, kim qattiq harakat qilsa, kiradi.
26. Tarj. ar.: Yomon ona qornida ham yomondur.
27. Tarj. ar.: Ular do‘zax o‘tiga loyiq va unda abadiy yonadilar.
28. Tarj. ar.: Haqiqatda Olloh har bir ishga (qodirdir).
29. Tarj. ar.: Ibrohim (salovat ur—rahmoni alayhi) — payg‘ambar. Laqabi Xalil, Xalilulloh. Rivoyatlarga ko‘ra u buttarosh Ozarning o‘g‘li bo‘lib, miloddan 2000 yil avval Bobilda dunyoga kelgan. Ibrohim o‘z toifasini yolg‘iz Xudoni tan olishga da’vat etgan. Namrud uni olovga tashlaganda omon qolgan ekan. Ka’bani Ibrohim bunyod qilgan deyiladi. Xudovand Ibrohimga o‘g‘li Ismoil (musulmonlar rivoyatiga ko‘ra) yoki Ishoq (yahudiylar rivoyatiga ko‘ra)ni qurban qilishni buyurganda, uni ijro etish asnosida o‘g‘il o‘rnida bir qo‘y qurbanlikka yuborilgan ekan. Ibrohim 170 yil umr ko‘rgan deyiladi. Undan ikki o‘g‘il — Ishoq (onasi Sora) va Ismoil (onasi Hojar) qolgan ekan.
30. Ibrohimning o‘tga tashlanganiga ishora qilinmoqda.
31. Tarj. ar.: Yunus — Isroil avlodlaridan, payg‘ambar, laqabi «Zunnun, safarlaridan birida to‘fon ko‘tarilib, kemadan daryoga yiqiladi va uni baliq yutadi, uch kundan so‘ng qirg‘oqqa chiqarib tashlaydi, deyiladi.
32. Tarj.ar.: Namrud — Bobilning afsonaviy podshohi. Rivoyatlarga ko‘ra, Bobilni Namrud bunyod etgan ekan. Shijoatli va qo‘rqmas bo‘lgan, Ibrohim payg‘ambar uning davrida yashagan

deylidi.

33. Tarj. ar.: Ollohg'a, uning elchisiga va barcha ulug'lar amriga itoat qilingiz.
34. Tarj. ar.: Muborak yaratuvchi, taolodan minnatdormiz.
35. Tarj. ar.: Butlon raqami chekdi va kitoblariga nasx xati tortdi, aynan: behudaligini qayd qildi va zayil qilishlik xatini tortdi. Bu yerda so'z Muhammad (a. s.)ning boshqa payg'ambarlardan farqi ustida ketmoqda.
36. Tarj. ar.: Sulton Ollohnning yerdagi soyasidir.
37. Tarj. ar.: Saltanat eshiklari, hojatlar qiblasi.
38. Tarj. ar.: Biz senga aniq-ravshan qilib ochdik.
39. Tarj. ar.: Olloh senga aziz g'alaba beradi.
40. Tarj. ar.: Asli mustahkam, boshi samoda.
41. Tarj. ar.: Xalifalarni yerda men ta'minlayman.
42. Tarj. ar.: Bir soatlik adolat ikki dunyo harakatlariga barobar.
43. Tarj. ar.: Olloh ularga adolat va ehsonni buyurgandir.
44. Tarj. ar.: Ammo tilanchilarni ranjitma.
45. Tarj. ar.: Jamshid — Eronning afsonaviy shohlaridan. U qurol—aslaha, ipak va ranglar ixtiro qilgan, ulkan binolar qurdirgan ekan. Uning davrida odamlar farovon yashagan, xastalik nima, o'lim nima bilmagan emish. Keyinchalik kibr—havoga berilib ketgan. Jamshidni jazolash uchun Xudo istilochi Zahhokni yuborgan va u Jamshidni arra bilan ikki bo'lib tashlagan emish. Bu yerda Navoiy asli Husayn Boyqaroni Jamshidga o'xshatmoqda. Albatta Jamshidning ijobiliy faoliyati va bilim, ixtiolarini Navoiy ko'zda tutadi.
46. Sulaymon — Dovud o'g'li, podshoh. Yahudiydar payg'ambari sanaladi. Bayt ul-muqaddas — Quddus shahrini bunyod qilgan. U hayvonlar va qushlar tilini bilar, parilar uning xizmatida bo'lar ekan. Navoiy bu yerda Husayn Boyqaroni Sulaymon kabi devu parilarga ham sultondir, deb ta'riflamoqda.
47. Qavs quzah — kamalak demakdir. Baytning mazmuni: Uning mevalar soladigan tog'arasi zangori osmon, otadigan o'q yoyi — kamalak kabidir.
48. Hotami Toiy — hokimiyat davrida o'zining saxiyligi bilan dong taratgan «toy» qabilasiga mansub zot. Uning nomi saxovat va karam qilish ramziga aylanib ketgan. Bu yerda Navoiy Husayn Boyqaroda shunday fazilat mayjud, deya ta'riflaydi.
49. Navoiy bu yerda Husayn Boyqaro o'z sultanatini boshqarishda qator qabilalarning vakillariga tayangani va har qaysiga muvofiq amallar bergani haqida yozadi.
50. Tarj. ar.: Salsabil deb nomlangan buloqning o'zginasi.
51. Jerib — yer o'lchovi, taxminan 1 tanob. Jeribni, shuningdek, 1 jeribdon ekish mumkin bo'lgan yer bo'lagini ham atashgan. Ye. E. Bertelsning izohlashicha, turli davrlarda jerib miqdori turlicha belgilangan (100 to 200 m.ga qadar).
52. Fiqh usuli va furui — diniy qoidalar haqidagi huquq ilmining tarmoqlari va unga oid sharhlar.
53. Tarj. ar.: Alloh qabrlarini munavvar qilsin!
54. Tarj. ar.: Ey iymon keltirganlar, jum'a namozi uchun azon aytilsa bas, intilinglar, (Allohnning zikriga boringlar,
savdo—sotiqni tark etgan holda.
- Alloh zikri deyilganda jum'a namozidan keyin o'qiladigan xutba nazarda tutiladi. Savdo—sotiqni tark etgan holda deyilganda, Odatda jum'a kunlari boshqa kunlarga nisbatan savdo—sotiq yaxshi bo'lgan. Ba'zi iymoni zaif kishilar savdoga qiziqib, jum'a namoziga qatnasha olmaganlar (Jum'a surasi, 9—oyat).
55. Tarj. ar.: Xalos ixlosdadir.
56. Muborak Haj safari — Navoiy islom ruknlari (tavhid — iymon keltirib, besh vaqt namoz, ro'za va zakot)ni sidqidildan bajarib kelgan va endi Haj safari orzusida ekanligini bayon etadi.

57. Ravotib — xizmatchilarga vaqtı—vaqtı bilan berib turiladigan maosh, nafaqa va boshqa moddiy yordamlarni anglatadi.

58. 886/1481 — 82 yil.